

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY IJODIDA AYOL OBRAZI

Mohinur Xo‘jamuratova

Alfraganus universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiylarning ijodida ayol obrazi va gender tenglik masalasining badiiy hamda publitsistik talqini tahlil etilgan. Jadidchilik harakatining yetakchi namoyandasi sifatida Behbudiylarning ayolni jamiyat taraqqiyoti, millat ravnaqi va ma‘rifatning asosiy omillaridan biri sifatida talqin etishi ilmiy jihatdan yoritiladi. Xususan, “Padarkush” dramasi hamda adibning publitsistik maqolalari misolida ayollarning ilm olishi, huquq va erkinliklari, oiladagi tarbiyaviy o‘rni hamda ijtimoiy faolligi bilan bog‘liq g‘oyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayolning ona, tarbiyachi va jamiyatning faol a‘zosi sifatidagi badiiy obrazi ochib berilib, uning huquqsizligi va savodsizligi jamiyat tanazzuliga olib keluvchi omillardan biri sifatida baholanadi. Shuningdek, Behbudiylarning ayol masalasiga oid qarashlari keyingi jadid adiblari ijodiga ko‘rsatgan ta‘siri ham yoritiladi. Tadqiqot natijasida Behbudiylarning ayolni ma‘rifatli va ongli shaxs sifatida tarbiyalash orqali milliy taraqqiyotga erishish mumkinligini ilgari surgan ilg‘or mutafakkir ekanligi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiylarning, jadidchilik, ayol obrazi, gender tenglik, “Padarkush” dramasi, ma‘rifatparvarlik, ayol ta‘limi, ona obrazi, publitsistika, milliy taraqqiyot, xotin-qizlar huquqlari, jadid adabiyoti, ma‘naviy tarbiya, ayol erkinligi.

Mahmudxo‘ja Behbudiylarning Turkiston o‘lkasining taraqqiyparvar, ma‘rifatparvar insoni edi. Uning adabiy ijodi, dramaturgiyasi va publitsistikasida gender tenglik masalasi alohida ajralib turadi.

Behbudiylarning «Padarkush» dramasi [1] birinchi o‘rinda ma‘rifatsizlikning oldini olish masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi. “Padarkush”da aynan shu zanjir ochib beriladi: savsizlik → noto‘g‘ri tarbiya → jinoyat → fojia. Behbudiylarning shu asari bilan jamiyatni ogohlantiradi. Behbudiylarning asarlarida ayol faqatgina shaxs emas, balki ramziy obraz sifatida ham talqin etiladi.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida yuz bergan tub o‘zgarishlar jadid

adabiyotining shakllanishiga zamin yaratdi. Jadid adabiyoti vakillari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-ma'rifatni, tarbiyani, ayniqsa, ayolning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish masalasini ilgari surdilar. Shu jihatdan, Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Behbudiy nafaqat dramaturg va adib, balki ijtimoiy arbob sifatida ham ayol masalasiga jiddiy e'tibor qaratgan. U ayolni oilaning, balki butun jamiyatning tayanchi deb biladi. Uning asarlarida ayol obrazi – zulm ostidagi, huquqsiz, ammo ongli va uyg'onishga intiluvchi shaxs sifatida aks etadi.

Jadid adabiyotining asosiy g'oyalaridan biri – jamiyatni yangilash, insonni ma'rifat yordamida ozod qilish edi. Bu maqsadda ayol masalasi markaziy o'rinni egalladi. Chunki ayol – avlod tarbiyachisi, kelajakni shakllantiruvchi shaxs sifatida talqin qilindi. Behbudiy ayolni faqat uy yumushlari bilan cheklanib qolgan mavjudot emas, balki jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida ko'radi. U ayollarning savodli bo'lishi, erkin fikrlashi, o'z huquqlarini bilishini talab qilgan. Behbudiyning eng mashhur asari – “Padarkush” dramasidir. Ushbu drama orqali adib jaholat, nodonlik va axloqiy tanazzul oqibatlarini fosh etadi. Asardagi ona obrazi passiv, ijtimoiy hayotdan chetlatilgan ayol timsolida namoyon bo'ladi. U o'g'lining tarbiyasiga to'liq ta'sir ko'rsata olmaydi, natijada farzand otasiga qarshi chiqib, fojiali jinoyat sodir etadi. Bu yerda Behbudiy ayolni ayblamaydi, balki jamiyatdagi ayolning huquqsizligi, savodsizligi fojيانing asosiy sabablaridan biri ekanini ko'rsatadi. Demak, ayolga ilm berilmasa, butun jamiyat tanazzulga yuz tutadi degan g'oya ilgari suriladi. Behbudiy publisist sifatida ham ayol masalasini yoritgan. Uning maqolalarida quyidagi muammolar ko'tariladi:

Adib ayolni ilimli qilish orqali millatni yuksaltirish mumkinligini ta'kidlaydi. U shunday yozadi: “Ayol savodsiz bo'lsa, farzand ham savodsiz bo'lur”. Bu fikr jadid tafakkurining muhim ijtimoiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Behbudiy ijodida ayol, avvalo, ona sifatida tasvirlanadi. Ona – millat tarbiyachisi, axloq, odob va ilm manbai sifatida talqin etiladi. Agar ona jaholatda qolsa, jamiyatda jaholat hukmron bo'ladi. Shu sababli Behbudiy qizlarning maktablarda o'qishi, zamonaviy fanlarni egallashi tarafdori bo'lgan. U ayol erkinligini axloqiy me'yorlar asosida tushunadi, ya'ni ayolning erkinligi – bu buzqlik emas, balki ongli hayot, ilimli

yashash, oila va jamiyatda faol bo'lishdir. Behbudiy ijodidagi ayol obrazi keyinchalik boshqa jadid adiblari asarlarida yanada rivojlandi. Masalan, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy asarlarida ayol muammosi yanada kengroq, psixologik chuqur tarzda yoritildi. Ammo Behbudiy bu yo'lning asoschisi bo'ldi. Behbudiy ayolni ko'proq tarbiyaviy, ijtimoiy mas'ul shaxs sifatida ko'rsatsa, keyingi adiblar ayolni shaxs, muhabbat, erkin tanlov sohibasi sifatida tasvirlay boshladilar. Bu esa Behbudiy boshlab bergan g'oyaning uzviy davomidir. Mahmudxo'ja Behbudiy ayol erkinligi masalasini Sharqona axloqiy mezonlar asosida ko'taradi. U ayolning erkinligini g'arbona buzuqlik sifatida emas, balki ilm olish, ongli yashash, majburlashsiz turmush qurish, o'z fikriga ega bo'lish tarzida tushuntiradi.

Behbudiyning "Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi" [2], "Hifizi sihhati oila", "Muomalayi zavjiyatg'a e'tidol", "Qiz bolalarning tarbiyasi" [3], "Uylanmaslikni zarari", "Tibban tanosubi zavjayn", "Xotun olmoqni kerakligi" [4].

Farzandlar birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Jadid bobolarimizning xotin-qizlar masalasiga oid maqolalarini tahlil qilish orqali har bir ayol ilm olishga haqli, balog'at yoshiga yetgan qizlarga onalari va ustozalari jiddiy e'tibor qaratishlari kerakligini, bo'yi yetgan qizlar tibbiy va axloqiy ilmlarga oid kitoblardan xabardor bo'lishlari muhimligini bilib olamiz. Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida ayol obrazi – jadidchilik g'oyalarining asosiy tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. U ayolni faqatgina oila doirasida emas, balki jamiyatning faol a'zosi, millat ravnaqining poydevori sifatida talqin etadi. "Padarkush" dramasida ayolning huquqsizligi jamiyat fojiasiga olib kelayotgan omil sifatida ko'rsatilsa, publisistik asarlarida ayolni ma'rifat bilan qurollantirish g'oyasi ilgari suriladi. Behbudiy ayolni uyg'otish orqali butun millatni uyg'otish mumkinligini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Behbudiy ijodidagi ayol obrazi – jaholatga qarshi kurash ramzi, kelajak taraqqiyotining kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Behbudiy M. Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi. – Toshkent: Akademnashr, 1918. – B.95-106.

2. Behbudiy M. Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.156-162.
3. Behbudiy M. Qiz bolalarning tarbiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.178.
4. Behbudiy M. Xotun olmoqni kerakligi – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.191-192.
5. Hakimovich, N. A. (2025, October). "PADARKUSH" DRAMASI: DASTLABKI NASHRI VA TABDILLARI TAHLILI. In Conferences (Vol. 1, No. 2, pp. 258-262).
6. Sultonova, F., & Avazov, N. (2025). BEHBUDIY IJODIDA XOTIN–QIZLAR MASALALARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR, 1(1), 381-384.
7. M, Baxramova. (2026). Koreys tilida kelishiklarning ahamiyati va roli. The theory of recent scientific research in the field of pedagogy (vol. 4 No. 39), 59-62.
8. M, Baxramova. (2025). O'zbek va koreys tilida kelishik qo'shimchalar tarjimasidagi tafovut tasnifi. Fan va san'at. 3-son, 4-7 b.
9. Bekmuratova, S. Enhancing ESL learning: nurturing productive skills through an inductive approach. Xalq ta'limi, 118.
10. Ulug'bekovna, B. S. Pedagogika va psixologiyada innovatsion tadqiqotlar.
11. Shirin, B. (2025). Psycho-linguistic research on language acquisition of children in bilingual family. Alfraganus, (4 (15)), 24-26.
12. M. M. Ходжаханов (2023). Способы словообразования терминов-словосочетаний и сложных терминов маркетинга английского языка. "Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi" mavzusidagi Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 251-259.
13. M. M. Ходжаханов (2024). Этимологические особенности терминов маркетинга в английском языке. "Modern scientific research: achievements, innovations, and development prospects". Germany International scientific-practical conference, 203-208.
14. M. M. Ходжаханов (2023). Сопоставительный анализ терминов маркетинга в русском и узбекском языках. Тил ва адабиёт таълими, (11), 65-68.
15. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. The Light of Islam, 3, 39-47.